



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI BANDIXON TUMANI HOKIMINING
QARORI

Bandixon tumani Mustaqillik ko‘chasi. 1-uy.190300, tel.: (+99876)374-15-71, (bandixon.t@exat.uz,) doc.@sdv.uz

2022 года «20» мая

226-8-211-Q/22

Хокимият Бандихонского района

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada kavrak yetishtirishni rivojlantirish va sanoatlashtirishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 27-apreldagi PF-116-sonli Farmoni hamda viloyat hokimining 2022-yil 17-maydagi 310-8-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida

Tumanda yovvoyi holda o‘sovchi kavrak o‘simligi tabiiy zaxiralarini saqlash, ularning qayta tiklanishini ta‘minlash, madaniy usulda kavrak plantatsiyalarini yaratish hamda qayta ishlash korxonalarini va uy xo‘jaliklari o‘rtasida kooperatsiyani yo‘lga qo‘yish, kavrakdan olinadigan xomashyoni qayta ishlash hamda tayyor va yarim tayyor mahsulot sifatida eksportga chiqarishni rag‘batlantirish, shuningdek, sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Respublikada kavrak yetishtirishni rivojlantirish va sanoatlashtirishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-116-sonli Farmoni hamda viloyat hokimining 2022-yil 17-maydagi 310-8-0-Q/22-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qaror bilan:

ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasiga kavrak yetishtirishni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha vazifalar yuklatilganligi;

2022-yil 1-maydan boshlab uch yil davomida kavrak yetishtirishdan olingan daromadlari joriy hisobot davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning kamida 80 foizini tashkil etadigan tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan foyda solig‘i, mol-mulk

solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 50 foiz miqdorida qo'llanilishi inobatga olinsin.

3.2022-2026-yillarda yaylov yer maydonlarida kavrak plantatsiyalarini barpo etishning prognoz ko'rsatkichlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari B.Hamrayev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Choriyev O'. A.

Bandixon tuman hokimining
2022 yil 20 maydagi
226-8-211-Q/22-son qaroriga
1-ilova

**2022-2026-yillarda yaylov yer maydonlarida kavrak plantatsiyalarini barpo
etishning prognoz ko'rsatkichlari**

gektar

T/r	Tuman nom	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2026-yil
	Bandixon	100	300	50	50	100